



O'ZBEK TILIDA SO'Z TURKUMLARINING BIRLAMCHI VA IKKILAMCHI VAZIFALARI

*Adiba BOTIROVA**

Annotation

Ma'lumki, so'z turkumlari o'rtasidagi aloqaning eng yuqori shakli ularning ko'chishidir. So'z turkumlarining ko'chishi esa ularning ikkilamchi vazifasi asosida yuz beradi. Ushbu maqolada so'z turkumlari funksional imkoniyatlarining kengayishi, bu jarayonda ularning birlamchi va ikkilamchi vazifalarining farqlanishi hamda masalaning nazariy asoslari haqida mulohazalar yuritilgan.

Kalit So'zlar: So'z turkumlari, Lison va nutq dixotomiysi, Birlamchi va ikkilamchi funksiyalar, Kategorial, Yondosh va Hamroh ma'nolar.

ÖZBEKÇEDEKİ SÖZCÜK TÜRLERİNİN BİRİNCİL VE İKİNCİL İŞLEVLERİ

Özet

Bilindiği gibi sözcük türleri arasındaki ilişkilerin üst şekli sözcüklerin birbirinin konumlarına karşılıklı geçişidir. Bu süreç sözcük türlerinde ikincil işlevlerinin bulunmasıyla gerçekleşmektedir. Bu yazında, Özbek Türkçesindeki sözcük türlerinin işlevsel görevlerinin genişlemesi, bu süreçte birincil ve ikincil işlevlerinin farklılaşması, ayrıca konunun kuramsal yönleri ele alınmaktadır.

Anahtar Sözcükler: Sözcük Türleri, Dil ve Söylevin Dikotomisi, Sözcük Türlerinin Birincil ve Ikincil İşlevleri, Kategorik ve Yan Anlamlar.

PRIMARY AND SECONDARY FUNCTIONS OF WORD CLASSES IN UZBEK LANGUAGE

Abstract

As is known, the highest form of interrelation in the paradigm of word classes is their mutual transition. This act is carried out with the presence of primary and secondary functions in word classes. This article discusses the expansion of the functional capabilities of word classes of the Uzbek language, differentiation of their primary and secondary functions in this process, and the theoretical aspects of the issue.

Key Words: Word Classes, Dichotomy of Language and Speech, Primary and Secondary Functions of Word Classes, Categorical and Accompanying Meanings

So'z turkumlari funksional imkoniyatlarining o'zgarishi lisoniy belgining semantik-sintaktik taraqqiyoti sifatida formal va struktur tilshunoslikning markaziy muammolaridan bo'lib kelgan. So'z ma'nolarining kengayishi polisemiyadan tortib, polifunksionallik orqali omonimiya darajasigacha ko'tarilishi mumkinligi bugungi kunda nafaqat grammatik talqinlarni takomillashtirish va grammatik hodisalar ta'limini ob'ektiv voqelik bilan muvofiqlashtirish mazmunida isloh qilish, balki leksikografik talqinlarni ham qayta ko'rib chiqish zaruratini kun tartibiga qo'ymoqda.

* Nevayı Devlet Pedagoji Enstitüsü, ÖZBEKİSTAN, el-mek: adiba.botirova@bk.ru

ORCID ID: <https://orcid.org/0000-0003-3728-365X>

So'z turkumlari funksional imkoniyatlarining kengayishi, bu jarayonda birlamchi va ikkilamchi vazifalarning farqlanishi hamda uning nazariy asoslarini yaratish masalasi tilshunos E.Kurilovich tomonidan o'tgan asrning o'rtalarida kun tartibiga qo'yilgan edi.

E.Kurilovich turli turkumga mansub so'zlarining o'z substantsial tabiatiga xos bo'lмаган semantik-sintaktik mohiyat kasb etishini, boshqacha aytganda, bir turkumga mansub so'zlarning boshqa turkum xoslangan vazifalarda kelishini "o'rindoshlik" sifatida qarab, asos va hosila vazifalarni farqlaydi. "Belgini anglatgan so'z (ya'ni, sifat) ham aniqlovchi, ham kesim va mustaqil aniqlovchi (anaforik sifatlar) vazifasini bajarishidan ushbu funktsiyalarning barchasi mazkur so'z turkumiga tegishli, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak" (Kurilovich, 1962: 58-59) deb yozar ekan, bu bilan so'zlarning xos va xos bo'lмаган ma'no va vazifalarini ajratish yo'lidan boradi. E.Kurilovich so'zlarning gap tarkibidagi vazifasiga "ma'nodan vazifaga" tamoyili asosida yondashib, har bir so'z turkumi aslida ma'lum bir xos ma'nolar majmuiga mos ravishdagi sintaktik vazifalarni bajarishini, bu vazifalar uning uchun birlamchi vazifalar ekanligini ta'kidlaydi. So'zning bosh ma'nosiga birlamchi funktsiya, hosila holatiga ikkilamchi funktsiya muvofiq keladi (Kurilovich, 1962: 58-59). Olim so'zlarning birlamchi funktsiyalarini asosiy vazifa, funktsiya sifatida qaraydiki, bu, albatta, nisbiy mazmunda tushunilmog'i lozim. Chunki birlamchi vazifa deganda genetik va diaxronik jihatdan birinchi, bosh vazifa tushuniladi. Holbuki, tilning ma'lum bir sinxronik holatida so'zning birlamchi vazifasi asosiy bo'lmasligi mumkin. Boshqacha aytganda, sifat turkumiga mansub so'zning ushbu turkumdag'i bosh vazifasi birlamchi bo'lib, keyinchalik u butunlay ot turkumiga o'tib ketgan bo'lsa va ushbu turkumdag'i vazifasi ustuvorlashib, faollahshib, asosiy o'ringa chiqqan bo'lishi mumkin. Dalil sifatida o'zbek tilidagi *quralay, charos* so'zlarini shu nuqtai nazar dan qarab ko'raylik:

QURALAY 1 Kiyik yoki ohularning yosh bolasi. **2 ayn. quralay ko'z.** *Mehribon ko'zlar jigarga moyil, quralay.* "Yoshlik". **Quralay ko'z** Quralayning ko'ziga o'xshash ko'zli. *Quralay ko'z, bodomqovoq, sarv qomat.* S.Siyoev, Avaz.

CHAROS 1 Ertapishar, yumaloq qora uzum. *Ichkari hovli keng, gulzor, baland so'riga ko'tarilgan toklar.* **Charos, husayni uzumlar g'arq pishib, boshlari osilib turibdi.** Y. Shamsharov, Toshqin. **Charos ko'z** Go'zal, qop-qora ko'z. *Yulduzxon charos ko'zlarini ohista ochdi.* Gazetadan. **2 Ayollar ismi.**

Ko'rindaniki, so'zlar birinchi ma'nosini bilan bugungi kunda kam iste'molli bo'lib, asosan ikkinchi – ko'chma ma'nosini bilan ko'proq qo'llanadi va kishining ko'ziga nisbatan belgi bildiruvchi sifatida istifoda etiladi. Bugungi kunda birinchi – otga xos semantik-sintaktik xususiyat birlamchi bo'lib, lekin ikkinchi – sifatga xos semantik-sintaktik vazifasi ustuvor va asosiy o'ringa chiqqan. Juda ko'p shaxs otlari va atoqli otlarda bunday holatni kuzatishimiz mumkin: *dilbar, diloram, dilso'z, dilrabo, dildor, mo'min, musulmon, betayfiq, betamiz* kabi. Yoki, deylik, modal so'zlarning aksariyati aslan boshqa turkumga mansub bo'lib, bugungi kunda ularning ikkilamchi ma'no va vazifalari asosiyashgan: *ehtimol, chog'i, chamasi, mayli, go'rga, mazmuni, haqiqatdan, haqiqatda, darhaqiqat, darvoqe, filhaqiqat, aslida, aftidan, xayriyat, vassalom* (otdan); *shubhasiz, shekilli, rosti, to'g'ri, to'g'risi, to'g'rirog'i, so'zsiz, tabiiy, tabiiyki, ma'lumki, muhaqqaq, ochig'i* (sifatdan); *albatta, rostdan, chindan, avvalo, zotan, umuman* (ravishdan). Bu so'zlar kontekstual modal so'zlar deyilmasligi ularning ushbu ma'no va vazifasining to'liq lisoniyashganligini ko'rsatadi.

Quyidagi *es-es, qop-qop, kunda, qo'qisdan, jo'rttaga, bexosdan, piyoda, zimdan, oyda-yilda, kechasi, kunduzi, oqshomlari, tezda, yaqinda, qatorasiga, yonlamasiga, birdan, birga, bunda, shunda, tuyg'un, bultur* kabi so'zlarning bugungi kunda qaysi turkumga mansubligini belgilashda ham ularning ma'noviy-vazifaviy o'zgarishlari inobatga olinadi.

Funksional-substantsial o'zgarishlarni so'z turkumlari kesimida qarashga harakat qilamiz.

Ot vazifasining asosiyashuvi: *yigit, qiz, o'g'il, qari, er, xotin, ko'r, issiq-sovuq, achchiq-chuchuk, yosh, qari, yosh-u qari, siyoh* (sifat); *el, shish, yuq, ich, ko'ch, qir, chaqirdi, chorladi,*

ko'rdi, keldi-ketdi, qo'ydi-chiqdi, oldi-berdi, oldi-sotdi; mindi-mindi (bolalar o'yinining nomi), *bordi-keldi, keldi-ketdi, oldi-berdi, ur-yiqit, ur-sur, baqir-chaqir, yasan-tusan, supur-sidir, yugur-yugur oldi-qochdi* (gap), *kuydi-pishdi* (ayol), *iliguzildi* (vaqt), *ichakuzdi* (hangomalar), *supraqoqdi* (farzand, ya'ni so'nggi farzand), *kengash, kurash, o'qish, yozish, o'tmish, qilmish, qidiruv, o'ynash, saylov, ishlov, qurshov, qatnov, qistov, tanlov, tintuv, maqtov, tergov, to'lov, o'quv, chanqov, qalov, qarov, to'ntarish, o'zgarish, qiziqish, o'qish, o'tirish, qarash, tuyulish, burilish, burilish* ("o'zgarish" ma'nosida), *yozuv-chizuv, yurish-turish, borish-kelish, bosar-tusar, ko'rolmaslik, kiraverish; o'qituvchi, bog'lovchi, kuzatuvchi* (fe'lida); *ququ* (qush), *dudut* (yengil mashina), *popop* (asli: pop-pop, tikuv mashinasi), *tutu* (tovuq), *patpat* (mototsikl), *shapshap* (magazkushak), *shaqshaq* (qushning nomi) (taqlidda) kabi.

Sifat vazifasining asosiyashuvi: *mosh-guruch, yo'l-yo'l, rang-barang, xilma-xil* (otda); *daydi, qari, och, chalkash, yanglish, tutash, aralash* (fe'lida).

Ravish vazifasining asosiyashuvi: *es-es, qop-qop, kunda, qo'qqisdan, jo'rttaga, bexosdan, piyoda, zimdan, oyda-yilda, kechasi, kunduzi, oqshomlari* (otda); *tezda, yaqinda, qatorasiga, yonlamasiga* (sifatda) kabi.

Bundan ma'lum bo'ladiki, so'zlarning birlamchi va asosiy ma'no-vazifalari muvofiq kelmaydigan holatlarni zikr etilgan kabi dalillar asosida aniqlash ularning ma'lum bir vazifada qo'llanishini maxsus statistik tadqiqotlarda o'rganish yo'li bilan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

So'zlarning hosila ma'no va vazifalarni belgilashda ularning lison va nutqqa munosabatini oydinlashtirish muhim. Chunki, aytilganidek, hosila ma'no va vazifalar lisoniyashgan, lisoniyashayotgan yoki nutqiy kontekstual bo'lishi mumkin.

So'zlarning ikkilamchi yoki hosila ma'no va vazifalar kasb etishida kontekstning alohida o'rni bor. E. Kurilovich ta'kidicha, ma'lum bir sintaktik kontekstda qo'llanishga "odatlanish" so'z ma'nosini ma'lum darajada o'zgartirib, uning boshqa turkumga ko'chishini ta'minlaydi. **Ko'rlar** ko'rmaydi, **karlar** eshitmaydi gapida sifat turkumiga mansub so'zlarning polifunksionallashuvida shunday holatni ko'ramiz. Bunda qo'llangan *ko'r* va *kar* so'zlarining semantik-sintaktik o'ziga xosligi yoki mohiyati hali o'zbek tilshunosligida yetarli darajada aniqlangan deb bo'lmaydi. Aks holda ular "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha talqin etilmas edi. E'tibor qiling:

KAR Eshitish qobiliyatini yo'qotgan, eshitmaydigan yoki yaxshi eshitmaydigan, shuningdek, eshitgan so'zining ma'nosini ajratish darajasi juda pasayib ketgan; garang, karquloq.

KO'R 1 Ko'rish qobiliyat yo'q; so'qir. **2** *ko'chma* Narsa, voqeа, hodisa va sh. k.ning mohiyatiga tushuna olmaydigan; ongi etilmagan, ongsiz, bilimsiz.

Har ikki so'zning ham qaysi turkumga mansubligi izohda keltirilmagan va u ma'lum. Biroq buni tilshunos J. Eltazarov E. Kurilovich talqinlariga tayangan holda ot vazifasidagi so'z sifatida baholaydi: "Masalan, **Ko'rlar** ko'rmaydi, **karlar** eshitmaydi jumlasida sifatlar mustaqil, ya'ni aniqlanmish va otlarning ko'magisiz ishlatalgan, shakl jihatidan o'zgarmagan bu so'zni ana shu sintaktik "mustaqillik" otlarga xos (**ko'r** va **kar odamlar**) ma'noni ifodalashga olib kelgan" (Kurilovich, 1962: 29). Xo'sh, bu vazifaviy o'zgarish turkumiyl o'zgarishni ta'minlaganmi yoki qo'llanish lisoniy mohiyatli bo'lmay, faqat kontekstual xaraktergagining egami? Lug'at ham boshqa shaxs otlaridan farqli ravishda bunga e'tibor qaratmaydi. Zero, xuddi shunday mohiyatli *kasal* so'zi izohida butunlay boshqa holatni ko'ramiz:

KASAL 1 *ot* Organizm me'yoriy holatini, faoliyatini buzuvchi narsa; kasallik, dard. **2** *sft.* Organizmining me'yoriy holati, faoliyatı buzılınan, kasallıkka yo'liqqa; betob. **3** *ot* Organizmining me'yoriy holati, faoliyatı buzılınan shaxs, kasallıkka yo'liqqa shaxs; bermor.

(Lug'atda so'zning 6 ta ma'nosi farqlangan bo'lib, biz talqinlarimiz uchun zarur bo'lган 3 ta ma'noni olish bilan cheklandik).

Bir so'zning talqinidagi bir-biriga zid ikki holat ularning semantik-sintaktik mohiyati hali fanda oydinlashtirilmaganligini ko'rsatadi. Birinchidan, so'zning ma'nolari *ot*, *sif* belgilari bilan berilgan. Ikkinchidan, ma'nolar o'zaro arab raqamlari bilan ajratilgan. Arab raqamlari bilan ajratish, lug'atchilik an'anasisiga ko'ra, ko'p ma'nolilikka nisbatan qo'llanadi. Bunga ko'ra, *kasal* birligi – ko'p ma'noli bitta so'z. Ko'p ma'noli so'z, unda nechta ma'no bo'lishidan qat'i nazar, bitta leksema sifatida qaraladi va bu bir paytning o'zida ma'nolarni ot yoki sifat belgilari bilan berishning mantiqsizligini ko'rsatadi.

So'zning nafaqat ikkilamchi, hatto birlamchi ma'nolari ham, umuman olganda, har qanday ma'no va vazifaning voqelanish muhiti kontekstdir. Faqat ikkilamchi ma'nonigina kontekstga bog'lab qo'yish to'g'ri emas. Shuning uchun, nazarmizda, ikkilamchi ma'no yoki vazifa haqida gap ketganda emas, balki umuman, ma'no va vazifa haqida so'z yuritilganda kontekstga tayanib fikr yuritaverish mumkin (Kipriyanov, 1977: 37).

Birlamchi va ikkilamchi ma'no va vazifalar haqida so'z borar ekan, kontekstda ularni farqlovchi omillar, farqlanishning barqaror yoki o'tkinchiligi, ikkilamchi funksiyada qo'llanishning bir xil qurshovlar bilan belgilangan-belgilanmaganligi, mazkur ma'nolarni farqlovchi omillarning turi, xususiyatlari, ma'no va vazifalarni farqlash va voqelantirishda ishtirokchi omillarning hamkorligi asosiy muammo sifatida kun tartibiga qo'yilishi zarur. Shu bilan birga, ikkilamchi ma'no va vazifaning so'z ilk mohiyatiga aloqadorligi, undan uzoqlashish darajasi kabi masalalar ham so'zlarning lisoniy mohiyatiga daxldor xulosalarga asos bo'ladi.

So'zlarning birlamchi va ikkilamchi vazifalari talqinida bu vazifalarning lisoniy yoki kontekstual xarakterga ega bo'lishidan keyin e'tiborga olinishi kerak bo'lган jihatlardan biri so'zlar mohiyatidagi kategorial, yondosh va hamroh ma'nolarni farqlashdir (Musulmanova, 2007: 13).

O'zbek tilshunosligida grammatic ma'no tarkibidagi kategorial, yondosh va hamroh ma'nolarning farqlanishi – o'zbek tilshunosligi qo'lga kiritgan muhim yutuqlardan biri. Tilshunos N.Musulmanovning bu boradagi xulosalarini umumlashtirgan holda aytish mumkinki, lisoniy grammatic ma'noda dialektik yaxlitlikdagi kategorial va yondosh, ular bilan dialektik bog'liq bo'lмаган hamroh ma'nolar farqlanadi. Olimaning xulosalaridan so'zlarning ham semantik-sintaktik mohiyatidagi shunday jihatlarni farqlashda metodologik omil sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqotchining ta'kidicha, kategorial ma'no grammatic shaklning substansial mohiyatidir. Masalan, son grammatic kategoriyasidagi birlik va ko'plik (miqdor) – grammatic ma'nosi kategorial ma'no. Biroq bu kategorial ma'no yondosh ma'nosiz yuzaga chiqmaydi. Son umumiy grammatic ma'nosida miqdorning sifat tomoni shaklning yondosh ma'nosini va kategorial ma'noning reprezentatori hisoblanadi. Deylik, birlik son kategoriyasida yuzaga chiqqan har qanday ot miqdori aniq yoki noaniq, bo'linuvchan yoki bo'linmas bo'ladi. Bo'linuvchanlik-bo'linmaslik, anqlik-noaniqlik sifat belgisi, son kategoriysi birlik-ko'plik ma'nosining voqelantiruvchisidir. Demak, sondagi miqdor aniq yoki noaniq, bo'linuvchan yoki bo'linmas xossalardan biriga ega bo'lishi shart va muqarrar (Musulmanova, 2007: 119).

Hamroh ma'no – grammatic shaklning kategorial ma'no bilan dialektik bog'liq bo'lмаган, matn va nutq sharoitiga bog'liq ravishda yuzaga chiqadigan ma'nosi. Masalan, ko'plik son shakli [-lar] ifodalaydigan "hurmat", "kesatish" ma'nolari grammatic shaklning lisoniy mohiyatiga bevosita daxldor emas va u har doim ham ushbu shaklning kategorial ma'nosi voqelantiruvchisi bo'lavermaydi (Musulmanova, 2007: 119).

Bu metodologiyaga tayaniqidigan bo'lsa, so'zning nomlanishi an'analashgan ikkilamchi funksiyasi uning bosh ma'nosi bilan bog'liq bo'lmay, boshqa omillar vositachiligidagi voqelanishi haqidagi qarashlardan yangicha xulosa chiqarish imkonini tug'iladi. Boshqacha

aytganda, so'z lisoniy mohiyatdan o'ren olgan funktsiyani bajarganida (masalan, biz yuqorida ta'kidlagan polifunktional so'zlarda) bu vazifa kategorial mohiyatga barqaror daxldorlik kasb etadi, agar u kontekst bilan muvaqqat bog'lanib, ko'chma qo'llanish xarakteriga ega bo'lsa, bu uning o'zi uchun xos bo'lmanagan qurshovga tushganligidan dalolat beradi, bu qurshovga xos vazifalarni vaqtinchalik bajaradi. Masalan, so'zlarning nutqiy ko'chma ma'noda qo'llanishi bunga dalil bo'la oladi. Masalan, *kasal* so'zining jonivor nomiga aniqlovchi bo'lib kelishida barqarorlashgan ko'chma ma'no va vazifani kuzatsak, *kompyuter* so'ziga aniqlovchi sifatida kelishida muvaqqat ma'no va vazifaning namoyon bo'lishiga amin bo'lamiz.

Umuman olganda, so'zlardagi birlamchi va ikkilamchi ma'no-vazifa lison-nutq dixotomiysi hamda semantik-sintaktik xususiyatlarning kategoriallik, yondoshlik va hamrohlik darajalari bilan bog'lanib ketadi. Ta'kidlash lozimki, lison-nutq dixotomiysi va kategoriallik-yondoshlik-hamrohlik birlamchi va ikkilamchi vazifalar bilan qanchalik zich bog'langan bo'lsa, o'zaro ham shunday dialektik aloqadorlikka ega. Nazarimizda, o'zbek tilidagi shaxs otlarida uchraydigan "shaxs" va "belgi" xususiyatlari o'zaro kategorial va yondosh mohiyatlar munosabatini aks ettiradi. Yuqorida keltirilgan *kasal* so'zining bir sifatlik va ikkita otlik belgilarni ana shunday dialektik murakkab mohiyatning kategorial va yondosh jihatlari sifatida baholash mumkin. O'zbek tilidagi polifunktional so'zlarning semantik-sintaktik jihat kategoriallik nuqtai nazaridan o'rganish tilshunosligimizdagi echimini kutayotgan dolzarb muammolardan biridir.

Yuqorida aytigelanidek va tilshunoslarimizning ta'kidlashlaricha, so'z turkumlari sirasida fe'l, ot, sifat, ravish turkumlarining semantik-sintaktik xususiyatlari o'zbek tilidagi bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning talablariga to'la muvofiq keladi. "Otning predmetlik xususiyati kesim ifodalovchi subekt – predmet va to'ldiruvchi ifodalovchi obekt – predmet bilan, fe'l anglatuvchi harakat-holat tushunchasi kesim ifodalovchi predikativlik bilan, sifat anglatuvchi belgi tushunchasi aniqlovchi ifodalovchi atributivlik bilan, ravish anglatuvchi harakatning belgisi (belgining belgisi) tushunchasi hol anglatuvchi atributivlik mos kelishi ana shu sintaktik pozitsiyalar bu so'z turkumlari uchun birlamchi, degan xulosaga olib keladi" (Eltazarov, 2006: 86).

So'z turkumlariga kiruvchi barcha so'zlarni bir xil qimmatga ega deb bo'lmaydi. Har bir turkumda shu turkumning kategorial mohiyatiga to'la mos kelmaydigan so'zlar ham mavjud bo'ladi. So'zlarning bunday darajalanish xususiyati ularni tasniflashda ma'lum bir qiyinchiliklarni tug'dirishi tabiiy. Chunki so'zlarni grammatic tasniflashda bugungi kunda barcha tilshunoslar tomonidan e'tirof etilgan semantik, sintaktik va morfologik belgilarni "markaziy" so'zlarda aniq kuzatish va aniqlash mumkin. Biroq oraliq muhitda turadigan so'zlarning bunday xususiyatlarini aniqlashda tilshunoslar ularni sun'iy ravishda goh u, goh bu tomonqa so'zni sun'iy ravishda suradilar, natijada til hodisalarini talqinidagi bunday lingvistik soxtaliklar ijtimoiy lingvistik tafakkurdan o'rinn olib, an'anaviy xarakter kasb etib qolaveradi. Tilshunosning asosiy maqsadi ham, bosh vazifasi ham turkumlar aro tebranib turadigan shunday hodisalarini oydinlashtirish, ular zamiridagi ushbu holatlarga sabab bo'luvchi ichki va tashqi omillarni tushuntirib berishdan iborat bo'ladi. Atoqli tilshunos L.V.Shcherba ta'kidlaganidek, "надо помнить, что ясно лишь крайнее случаи. Помежуточное же в самом первоисточнике – сознании говорящих – оказывающая колеблющимся, неопределенному. Однако это-то неясное и колеблющийся и должно больше всего привлекать внимание лингвиста." (Nigmatov, 1989: 13) Demak, so'z turkumlari sirasida markaziy o'rinni egallaydigan so'zlarning semantik-sintaktik yoki morfologik xususiyatlari shu turkumning tipik mohiyatiga mos keladi. Ammo turkumlar chegarasidagi so'zlarning mohiyatida turli turkumga xos belgilarning u yoki bu darajada aks etganligi (albatta, bu muqarrar til tabiatidagi ijobiy holat bo'lib, uning ichki strukturasidagi uzviylik va uzuksizlikni, umuman olganda, tilning yaxlit sistemaviyligini o'zida ifodalaydi) ular semantik-sintaktik vazifasi darajalarining qaysi mohiyatga tegishli ekanligini belgilashda qiyinchilik tug'diradi (Borte, 1973: 37-44).

Aytilganidek, so'zlarning birlamchi va ikkilamchi vazifalarini belgilashda diaxronik yoki sinxronik yondashuv katta ahamiyat kasb etadi. Diaxronik nuqtai nazardan birlamchi ma'no-vazifa sinxronik aspektda qaraluvchi paradigmatic munosabatlarda ikkilamchi mohiyat hisoblanishi mumkin. Shu ma'noda tilshunoslarimizning "so'zlarning invariant (ya'ni, kuchli) paradigmatic belgilari bilan uning birlamchi sintaktik funksiyasi, kuchsiz paradigmatic belgilari bilan ikkilamchi sintaktik vazifasi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqa mavjud" (Eltazarov, 2006: 68) degan mazmundagi fikrlarini faqat sinxron holatga nisbatan tushunish maqsadga muvofiqdir.

So'z turkumlari orasida birlamchi va ikkilamchi vazifalarning diaxron almashuvlari tilning taraqqiyoti va ehtiyojlarga moslashuvidan dalolat berib, har bir hodisaning moslashuvchanlikka moyilligi va qayishqoqligi ularning yashovchanligi garovidir.

So'zlarning bir turkumga xos oppozitiv belgilarni saqlab turib, boshqa turkum xususiyatlariga ham ega bo'lishini lisoniyashuv yoki bir turkumdan boshqasiga o'tish sifatida baholab bo'lmasligini tilshunoslar alohida ta'kidlashgan (Nigmatov, 1989: 13). Shuningdek, so'zlarning paradigmatic va chekka belgilari almashib turadigan holatlarini ham so'zlarning turkumdan-turkumga ko'chishi sifatida baholash ma'qul emas.

Shunday qilib, so'zlarning bir turkumdan boshqa turkumga muvaqqat yoki butunlay o'tishini lison va nutq dixotomiysi nuqtai nazaridan tahlil qilish, so'zlarning bir turkum doirasida polifunktionallashib borishi va ikki turkum chegarasidan o'rinn olishi, shuningdek, ma'no-vazifalar kategoriallik va nokategoriallik jihatlarining barqaror yoki o'tkinchiligi kabi holatlar ularning vazifaviy darajalarini belgilashning asosini tashkil etadi. Vazifaviy darajalanish talqini uning birlamchi va ikkilamchi, asosiy va ikkinchi darajali, bosh va hosila jihatlarning oydinlashtirishi, farqlanishi va ongli uqlishi bilan bog'lanib ketadi.

Adabiyotlar

BORTE, L. V., (1973). *Vliyanie Sintaksicheskoy Funktsii na Prosess Vzaimodeystvie Chastey Rechi. Problemi Teorii Chlenov Predlojeniya*. Kishinev: Shtiintsa.

ELTAZAROV, J., (2006). *So'z turkumlari Paradigmasida O'zaro Aloqa va Ko'chish Hollari*. Toshkent: Milliy Entsiklopediya.

GAK, V. G., (1984). *Teoreticheskaya Grammatika Fransuzskogo Yazyka*. M: Nauka.

KİPRİYANOV, V. F., (1977). *Problemo Chastey Rechi i Slova-Kommunikativo v Sovr. Russkom Yazyke*. M.: Nauka, 1977.

KURİLOVIÇ, E., (1962). Derivatsiya Leksicheskaya i Derivatsiya Sintaksicheskaya. *Ocherki po Lingvistike*. M.: Izdatelstvo Iноstrannoy Literature.

MUSULMANOVA, N. R., (2007). *Grammatik Shakllarda Kategorial, Yondosh va Hamroh Ma'no Munosabati*. Filol. Fanlari nomzodi ...Diss, Toshkent.

NIGMATOV, X. G., (1989). *Funktionalnaya Morfologiya Tyurkoyaziçníx Pamyatnikov XI-XII vv.* Tashkent: Fan.